

ISMOIL OLLABERGANOVNING “XATOBOYNING SARGUZASHTLARI”
YUMORISTIK QISSASIDA QATNASHGAN ANTROPONIMLARNING SEMANTIK
TAHLILI

Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li

UrDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Xatoboyning sarguzashtlari” yumoristik qissasida qo‘llanilgan antroponimlarning leksik-semantik tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: antroponim, real nom, noreal nom, atoqli otlar...

Annotation: In this article, a lexical-semantic analysis of the anthroponyms used in the humorous story “Xatoboyning sarguzashtlari” is carried out.

Key words: anthroponym, real name, non-real name, common nouns...

Аннотация: В данной статье проводится лексико-семантический анализ антропонимов, использованных в юмористическом рассказе «Xatoboyning sarguzashtlari».

Ключевые слова: антропоним, настоящее имя, ненастоящее имя, имена нарицательные...

Ismoil Ollaberganov – 1957-yil 10-mayda Xonqa tumanidagi Qoraqosh qishlog‘ida tug‘ilgan. 1981-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirda universitet)ning filologiya fakultetini bitkazgan. 1975-yildan buyon turli matbuot nashrlarida ishlab, badiiy ijod bilan shug‘ullanib kelmoqda. U “Shonli mehnat”, “Xorazm haqiqati” gazetalari hamda “Mushtum” jurnalida ishlagan. “Xorazm ziyokori” gazetasiga chorak asr mobaynida muharrirlik qilib, turli nashriyotlarda faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Ijod” jamoat fondi viloyat bo‘limiga rahbarlik qilgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi. O‘ndan ortiq she‘riy va nasriy kitoblari e‘lon qilingan. Ismoil Ollabergan 2021-yilda Xalqaro Turon Fanlar akademiyasi akademigi unvoniga ega bo‘lgan. Amir Temur ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Bugun biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan adibning “To‘y noni” deb nomlangan yumoristik qissa, hikoya va hajviyalar to‘plamidan joy olgan “Xatoboyning sarguzashtlari” yumoristik qissasi bo‘lib, biz undagi antroponimlar ya‘ni shaxslarga qo‘yilgan nomlarni ham leksik ham semantik jihatdan tahlil qilamiz. Quyida qissadan parchani keltiramiz, bu parchada

qatnashgan antroponimlar leksik jihatdan turli qatlamga mansub bo'lib ularni alohida tahlilga tortdik:

*Keling, tanisha qolaylik. Ismi-shariflari kim bo'ladi? Darvoqe, mening ismim **Xatoboy**.*

O'zim - Xudoyorov **Atoboyman**

Dastakni tog'amning qizi **Yorqinoy** oldi.⁵⁴

Ichkaridan **Usmonjon**⁵⁵ aka chiqdi.

-Kitoblarning hammasi joyidami o'zi?- so'radim **Nozigul**⁵⁶dan.

Madaniyat va turmush bo'limi mudiri **Nodir Qodir**⁵⁷ bilan tanishib oldim

-**Ashir** aka, voy, mening ham omadim kelibdi-ku!

Bizning **Norqul**⁵⁸ zap ishchan bola,

Keng yaylovda boqadi buzoq.

Cho'qqilardan tushar shalola,

Cho'qqilarki, hamisha uyg'oq.

Xullas, ikki kishilik xonada yotibmiz. Hamxonam **Ivan**⁵⁹ ismli rus yigiti. O'zi

Yaqinda ko'chada **G'anijon**⁶⁰ akani uchratib qoldim

Ustoz shoir **G'afur G'ulom**⁶¹ bir paytlari aytganidek "Qarabsizki, mening yozganlarimni ham bosishyapti".

Atoqli shoir **Nizom** Uzunning yangi kitobiga taqriz yozishga jur'at qildim.

Lirik qahramonning **Gulsanam**ga mayli bor.

Yorqinoy- kelib chiqishi o'zbekcha so'z bo'lib, hayoti nurli va oydek suluv qiz yoki oydek suluv, mehribon, dilkash qiz⁶² degan ma'nolarni anglatadi.

Usmonjon- kelib chiqishi arabchadan olingan bo'lib, siniqchi, singanlarni davolovchi, shikasband yoki og'ir, bosiq, mard, jasur. Bu nom Usmon ibn Affon choryorlar deb kiritiluvchi xalifalarning uchinchisining ismidir.⁶³

Nozigul- kelib chiqishi arabcha so'z bo'lib, tartibga, ma'lum nizomga solingan, ya'ni tartibli, intizomli⁶⁴, sarishta guldek chiroyli qiz degan ma'nolarni anglatadi.

Nodir- arabcha so'z bo'lib, siyrak, kam uchraydigan, tengsiz yoki bebaho, qimmatli⁶⁵ degan ma'nolarni anglatadi.

⁵⁴ I.Ollabergan. To'y noni. –T,: "Xorazm" nashriyoti, Urganch-2018, 3-bet.

⁵⁵ O'sha asar, 4-bet.

⁵⁶ O'sha asar, 7-bet.

⁵⁷ O'sha asar, 9-bet

⁵⁸ O'sha asar, 13-bet

⁵⁹ I.Ollabergan. To'y noni. –T,: "Xorazm" nashriyoti, Urganch-2018, 19-bet.

⁶⁰ O'sha asar, 21-bet

⁶¹ O'sha asar, 23-bet.

⁶² Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007, 128-бет.

⁶³ O'sha asar, 448-bet.

⁶⁴ O'sha asar, 293-bet

Qodir- arabcha ism hisoblanib, kuchli qudratli, barcha narsaga layoqatli degan ma'nolarni anglatadi. Bu nom Allohning sifatlaridan biridir. Asli: Abduqodir.⁶⁶

Norqul- bu ism ikki asosning qo'shilishidan hosil qilingan bo'lib nor so'zi fors-tojikchadan olingan, qul esa o'zbekcha so'z hisoblanadi.

Ivan- rus millatiga mansub shaxs ismi.

G'anijon- arabcha ism bo'lib, boy badavlat, taniqli⁶⁷ degan ma'nolarni anglatadi.

G'afur- arabcha so'z bo'lib, gunohlarni kechiruvchi, rahmdil, marhamatli, mag'firatli degan ma'nolarni anglatadi. Bu nom Allohning sifatlaridan biridir. Asli: Abdug'affor.⁶⁸

G'ulom- arabcha so'z bo'lib, o'tmishda hukmdorlar saroyidagi yosh xizmatkor, qul.⁶⁹ "G'ulom" so'zi bilan boshlangan bir qator qo'shma ismlarning asos shakli.

Nizom- bu so'z arabchadan olingan bo'lib, tartibli, intizomli, odobli o'g'il bo'lsin yoki marvarid shodasidek qimmatli, nodir⁷⁰ bo'lsin deb qo'yiluvchi ism.

Gulsanam- fors-tojik va arab tilidagi so'zlarning birikuvidan hosil bo'lgan bu so'z zebolarning, go'zallarning guli, ya'ni tengsiz go'zal⁷¹ degan ma'nolarni anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ushbu qissada qo'llanilgan antroponimlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilinganda ular asosan arabcha ismlar ekanligi aniqlandi. Ma'no jihatdan esa xilma-xil ekanligi e'tiborga arzigulik jihat bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.

2. I.Ollabergan. To'y noni. –T,: "Xorazm" nashriyoti, Urganch-2018

⁶⁵ O'sha asar, 291-bet

⁶⁶ O'sha asar 544-bet

⁶⁷ O'sha asar 544-bet

⁶⁸ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). –Т,: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007, 562-бет.

⁶⁹ O'sha asar, 564-bet.

⁷⁰ O'sha asar, 289-bet

⁷¹ O'sha asar, 100-bet